


**Avval xabar berganimizdek
(https://t.me/axborot_xizmati/12532),
bugun viloyat hokimi To'ra Bobolov
mavjud 721 ta mahallada faoliyat
yuritayotgan yoshlar yetakchilari bilan
ovozli chat orqali muloqot o'tkazdi.**



Termiz tumanidagi Uchqizil mahallasining yoshlar yetakchisi Dilmurod Tojiyev "Uchqizil" ko'lida yoshlar o'rtasida Baydarkada suzish (eshkakli qayiq) sport turini tashkil etish taklifini berdi. Viloyat hokimi ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, taklifni amalga oshirish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatma berdi.

Ochiq, erkin va samimiy ruhda o'tgan muloqotda yoshlarning 20 ga yaqin takliflari tinglanib, tashabbuslari qo'llab-quvvatlandi.

Viloyat hokimi tomonidan bu kabi muloqotlar doimiy tarzda o'tkazilishi, yoshlarning taklif va tashabbuslari qo'llab-quvvatlanib borilishi ta'kidlandi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati